

SPETSIFIKATSIYA VA XIZMATLAR RO'YXATI

“Ipak yo'lida turizm” Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini tashkil qilish, o'tkazish, ishtirokchilarni izlash va jalb qilish bo'yicha qator xizmatlarni ko'rsatish shartlari

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining mamlakatimizning jozibador turistik qiyofasini yaratish, shuningdek, xorijiy turistlar oqimini jalb qilish, milliy turizm mahsulotining xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirishni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq “Ipak yo'lida turizm” Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi turizm sohasi mutaxassislari bilan bir qatorda, oddiy sayyohlar o'rtasida o'tkazilmoqda.

TXTY ko'rgazmasi 2024-yil 14-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida (O'zbekiston) bo'lib o'tadi.

Xizmatlarni amalga oshirishda Tashkilotchi bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish

Xizmatlarning bajarilishini nazorat qilish uchun tadbirni tashkil qiluvchi kompaniya Tashkilotchiga (yoki uning talabiga binoan uchinchi shaxslarga) xizmatlarga tegishli zarur hujjatlarni taqdim etadi va xizmatlarning bajarilishi hamda shartnoma bo'yicha qilingan xarajatlarni tekshirish uchun sharoit yaratadi.

Tashkilotchi tadbirlarni tashkil etuvchi kompaniyaga xizmatlarni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha materiallarni taqdim etadi va xizmatlarning bajarilishi to'g'risida hisobot talab qilish huquqiga ega.

Bundan tashqari, tanlov bosqichida har qanday manfaatdor shaxsning yozma shaklda berilgan yoki elektron pochta orqali olingan alohida arizasiga ko'ra, tegishli ariza olingan kundan boshlab ikki ish kuni muddatida mazkur shaxsga TXTY Tashkilotchilari tomonidan ishlab chiqilgan ko'rgazmada ishtirok etish shartlarining elektron varianti taqdim etiladi (arizachining elektron manziliga).

Xizmatlar hajmi

“Ipak yo'lida turizm” Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini tashkil etish, o'tkazish, ishtirokchilarni izlash va jalb qilish xizmatlari TXTY Tashkilotchilari tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart.

TXTY ko'rgazmasi ko'rgazma-yarmarka faoliyati sohasidagi xalqaro standartlarga mos kelishi shart.

Tadbirlarni tashkil etish bo'yicha kompaniyaning barcha xizmatlari (ishlari) hajmi ikki bosqichga bo'lingan.

Birinchi bosqichda tadbirni tashkil etuvchi kompaniya tomonidan ekspozitsiya Tashkiliy qo'mitasi tomonidan tasdiqlash uchun ko'rgazma Konsepsiyalari, Taqvim rejalar va Badiiy konsepsiyalar loyihalari tayyorlanishi shart.

Tadbirni tashkil etuvchi kompaniya Tashkilotchiga ushbu hujjatlar loyihalarini TXTY ekspozitsiyasi Tashkiliy qo'mitasi bilan kelishishda amaliy yordam ko'rsatishi va zudlik bilan kerakli o'zgartirishlarni kiritishi shart.

Ikkinchi bosqich xizmatlari birinchi bosqichda tasdiqlangan hujjatlar asosida hamda ko'rgazma Tashkiliy qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan ko'rgazmaga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha tadbirlarning taqvim rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Tadbirni tashkil etuvchi kompaniya tomonidan quyidagi xizmatlar (ishlar) bajarilishi shart:

Tashkiliy vazifalar va ko'rgazma operatoriga qo'yiladigan talablar

№	Talablar va vazifalar nomi	Bajarish muddati
1.	TXTY 2024 konsepsiyasini ishlab chiqish	Fevral-noyabr
2.	Ko'rgazma markazi bilan shartnomaning mavjudligi	Fevral
3.	Ko'rgazma xarajatlari va daromadlari smetasini tuzish uchun vakolatli xodimning belgilanganligi.	Fevral-noyabr
4.	Ko'rgazma maydonini sotish uchun kamida 2 nafar ingliz tilini biladigan, Xalqaro ko'rgazmalarda tajribaga ega bo'lgan menejerlarning belgilanganligi (10 nafar xorijiy va 8 nafar mahalliy ishtirokchilarni jalb qilish).	Fevral-noyabr
5.	Hamkorlik paketlari bo'yicha kamida 2 ta hamkorni jalb qilish.	Fevral-noyabr
6.	Ko'rgazmani ochish, uni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplash.	Fevral-noyabr
7.	Ko'rgazma sayti va ijtimoiy tarmoqlarini yuritishda amaliy yordam ko'rsatish.	Fevral-noyabr
8.	Ko'rgazmani targ'ib qilish uchun mahalliy ommaviy axborot vositalari, blogerlar va jurnalistlarni jalb qilish.	2024-yil noyabr
9.	Ko'rgazmani xorijda targ'ib qilishga ko'maklashish (O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalari orqali, xorijiy turizm ko'rgazmalaridagi "O'zbekiston" Milliy stendida)	Fevral-noyabr
10.	Kamida 5 ta "professional xaridorlar" ("hosted buyers")ni jalb qilish va ularning xarajatlarini qoplash.	Fevral-noyabr
11.	O'zbekistonning hududiy turizm salohiyatini taqdim etishda amaliy yordam ko'rsatish (hokimliklarni jalb qilgan holda).	Fevral-noyabr
12.	Ko'rgazma bo'yicha me'yoriy hujjat loyahasini tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatish.	Fevral-noyabr
13.	Xorijiy davlatlar turizm muassasalarini milliy stand bilan ishtirok etishga jalb qilishda amaliy yordam ko'rsatish.	Fevral-noyabr
14.	TXTY ishtirokchilarini "Eng yaxshilarning eng yaxshisi 2024" nominatsiyalari bo'yicha taqdirlash bilan TXTYning rasmiy ochilish va yopilish marosimlarining texnik ta'minoti.	Fevral-noyabr
15.	Ishtirokchilar va tashrif buyuruvchilarni ro'yxatga olishni ta'minlash.	Noyabr
16.	Tashkilotchilar bilan birgalikda ko'rgazma ishtirokchilari uchun uzluksiz Internetga ulanishni ta'minlash.	Noyabr
17.	Xalq amaliy san'ati ustalari, hunarmandlar, folklor jamoalari va milliy ansambllar, musiqa ijodkorligi va an'anaviy san'at ustalarining taqdimoti.	Noyabr
18.	TXTYda ishtirok etish uchun xorijiy sayyohlik kompaniyalari va respublikaning turizm subyektlari vakillarini keng ko'lamda jalb etish.	Fevral-noyabr
19.	TXTY ochilishi munosabati bilan folklor jamoalari, estrada artistlari, musiqa va an'anaviy san'at ustalarini jalb etgan holda konsert dasturini tayyorlash va taqdim etish, Toshkent shahridagi teatrlar repertuarlarini taqdim etish.	Noyabr

20.	Mamlakat turizm sanoatini yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qilish, turizm subyektlari, shu jumladan xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun maydoncha yaratish.	Noyabr
21.	Pavilyonlar va konferensiya zallari hududini belgilangan tartibda ovozni kuchaytirish va sinxron tarjima qilish uchun zarur jihozlar bilan ta'minlash.	Noyabr
22.	TXTY faoliyati doirasida milliy turizm infratuzilmasining aviatsiya va temir yo'l tarkibiy qismlarining salohiyati va istiqbolli imkoniyatlarini aks ettiruvchi alohida keng ko'lamli ekspozitsiyalarni tayyorlash va taqdim etishni ta'minlash.	Noyabr
23.	Tijorat banklarining turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar to'g'risidagi stendlari va tarqatma materiallari bilan ishtirok etish masalalarini ishlab chiqish va tashkil etish.	Noyabr
24.	Xorijiy sayyohlar va turistik tadbirkorlik subyektlariga sug'urta xizmatlari ko'rsatish bo'yicha stendlar va tarqatma materiallar bilan ishtirok etish masalalarini ishlab chiqish va tashkil etish.	Noyabr
25.	- Toshkent shahri va viloyatlar shaharlarining markaziy ko'chalarida taqdim etilgan ijtimoiy reklama bannerlarini va TXTYga bag'ishlangan tematik materiallarni joylashtirish; - Toshkent shahridagi elektron tablolarida TXTY targ'ibotini amalga oshirishga yordam beruvchi ijtimoiy reklamani namoyish qilish, shuningdek, tadbirlar o'tkaziladigan joylarni bayramona jihozlar bilan bezashda amaliy yordam ko'rsatish.	Noyabr
26.	TXTY tadbirlarini yoshlar va umuman respublika aholisi o'rtasida keng targ'ib qilish.	Noyabr
27.	TXTY tadbirlari o'tkaziladigan joylarda jamoat tartibini muhofaza qilish, ishtirokchilarning harakat xavfsizligini ta'minlash, chet tilini biladigan mutaxassislarni jalb qilgan holda tibbiy yordam punktlarini tashkil etish, shuningdek, yong'in xavfsizligini ta'minlash.	Noyabr
28.	Tadbirlar davomida foto- va videotasvirga olishni ta'minlash va yakuniy video- va fotoalbomlarni tayyorlash.	Noyabr

Eslatma: tashkiliy topshiriqlarning tarkibi, miqdori va muddatlari Tashkilotchining qaroriga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.